

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 4 - dekabr

437-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'irot tumani "Suenli" OFY hududidan
doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasi va "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Yer uchastkalarinijamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-son qaroriga muvofiq, Qo'ng'irot tumani hokimligining 2023-yil 11-oktabrdagi 02-4445-sonli buyurtma xatini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qo'ng'irot tumani hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlardan "Suenli" OFY hududidan 8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab filiali binosi qurilishi uchun 1,5 gektar yer maydoni ilovaga muvofiq Qo'ng'irot tumani hokimligiga doimiy foydalanish huquqi asosida o'rnatilgan tartibda ajratib berilsin.

3. Qo'ng'irot tumani hokimligi (B.Madaminov) belgilangan tartibda:

ajratilgan yer maydonlariga qurilish loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish;

ajratilgan yer maydonlarida qurilish ishlarini tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan loyihalar va texnik shartlarga amal qilgan holda amalga oshirish;

ajratilgan yer uchastkalarida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin boshlash choralari ko'rsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunboyev) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga o‘rnatilgan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog‘iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**




F. Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 4-dekabrda
437-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qo'ng'iro't tumani hokimligiga
Suenli ovul fuqarolar yig'ini Umit ovuliga 8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab filiali binosi
qurilishi uchun tanlangan yer uchastkasining

T A R X I: M-6 1:2000



Yer uchastkasi haqida qisqacha ma'lumotlar: Yer uchastkasi Aholi punktida joylashgan bo'lib, sharq tarafi, shimol va janub turar joy tomarqa yer maydonlari, g'arb tarafi kollektor 25m, A•380 yo'li 57.5 m.

WGS-84 Koordinatasi

1. 42°57'16,643"C 58°52'57,413"B

2. 42°57'15,885"C 58°52'55,365"B

3. 42°57'21,613"C 58°52'50,704"B

4. 42°57'22,86"C 58°52'54,583"B

Yer uchastkasi maydoni (ga): 1,5 ga

Yer fondi: Aholi punkti yerlari

Ta'qiqlanganligi: Yo'q

Qaysi maqsadda foydalansa bo'ladi: **8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab filiali binosi uchun**

Yer turi: Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar

Ball boniteti: Baholamagan

Shartli belgilar



Ajratilgan yer chegarasi